

POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN

Norqulova D.Z.

Head of the Department of "Tourism"

Tohirova Z. Sh.

IK-620 group student

Annotation:

The impact of poverty on society and the state, as well as various measures for its development, which are relevant around the world, are widely covered in the article.

Keywords: poverty, destitution, daily income, poverty rate, poverty line, purchasing power, basic needs, freedom of choice

Biz yashayotgan davr talablariga asoslangan holda, davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan, mamlakatda kambag'allikni qisqartirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mazkur og'riqli masala birinchi marotaba Prezidentimizning 2020-yilning 24 yanvaridagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekistonda kambag'al aholi qatlami mavjudligi va u 12-15 foiz atrofida ekanligi ta'kidlandi. Bu raqamlar ularning kunlik tushumi 10-13 ming so'mdan atrofida ekanligini bildiradi. **Qator xalqaro hisobotlarga asoslansak, oxirgi yigirma yillik davr mobaynida O'zbekistonda kambag'allar soni anchagina oshgan.** Jahon Bankining so'nggi ogohlantirishlariga e'tibor qaratsak, oziq-ovqat va energiya mahsulotlari narxining global miqyosda oshib borayotgani yer yuzida yana millionlab insonlarni qashshoqlik domiga tashlashi mumkin.

Fuqarolarning moliyaviy ahvoli nafaqat o'zlarining, balki butun mamlakat hayoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qashshoqlik chegarasidan pastroqda yashovchi aholining o'sishi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ta'sirini o'tkazmay qolmaydi – aholi o'rtasida xarid qobiliyati pasayadi, ijtimoiy birdamlik yo'qoladi, ba'zi hollarda jinoyatchilikning yuqori darajasi, siyosiy beqarorlik va hatto qurolli mojarolar ham kelib chiqishi mumkin. Kelasi uch yil ichida jahon bo'ylab kambag'allik holatlarini yarmiga qadar qisqartirish - yangi ming yillikning asosiy maqsadlaridan biri sanaladi.

Concern Worldwide va Welthungerhilfe xalqaro nodavlat tashkilotlari tomonidan har yili e'lon qilinadigan global ochlik indeksida **O'zbekiston 2019 yilda 10,7 ball to'plab, dunyo mamlakatlari o'rtasida 49-o'rinni egalladi.** Baholash turli manbalardan olingan ma'lumotlarga tayangan holda, uch bosqichli jarayonda to'rtta ko'rsatkich: to'yib

ovqatlanmaslik, bolalarning to'yib ovqatlanmasligi, bolalar o'sishidagi kechikishlar hamda bolalar o'limi asosida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bunday aholi ulushi 2018 yilda juda katta raqamni – 62,1 %ni tashkil etdi. Kambag'allikni statistik o'rganish borasida zamonaviy uslubning mavjud emasligi, ushbu muammoni to'laligicha anglash va bu borada kerakli choratadbirlar ko'rish imkonidan yiroqlashtiradi.⁴

Kambag'al qatlam aholisi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shish va undan foyda ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Va bu o'z navbatida ularning turmushidagi qator ijtimoiy, ma'naviy muammolarni keltirib chiqaradi. Davlat bepul o'rta ta'limni ta'minlaydi, tibbiy xizmatlarini kafolatlaydi, "ijtimoiy ahamiyatli va xavfli" sharoitlarda kun ko'ruvchi guruhlarga ixtisoslashgan yordam va kam ta'minlangan oilalarga imtiyozlar beradi. Biroq, bu yetarli emasdek. Bu tadbir kerakli natijani bermas ekan, demak, bundanda ko'pi amalga oshirilishi lozim. Kambag'allik holatida yashashdan ko'ra, undan chiqib ketish anchagina qiyinroq. Shu sababli, bu muammo o'z yechimini topmasa, bu muammo kattalashaveradi. Kambag'al oilada ulg'aygan farzand pul topish ilinjida ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolishi mumkin, bu esa uning kelajakdagi daromadlari darajasiga ta'sir o'tkazadi. Bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan "kambag'allik" va "kambag'allik qopqoni" tushunchalari ko'p hollarda birga ishlatilsa-da, turli ma'nolarni kasb etadi.

"Kambag'allik tuzog'i" shunday bir tuzoqki, inson ulardan istalgan birining domiga tushib qolishi hech gap emas. Bunday tuzoqlarning butun insoniyat uchun eng ko'p dolzarb tus olganlari **qashshoq mamlakatda tug'ilish va istiqomat qilish, qishloq hududlarida tug'ilish va istiqomat qilish, erta yoshda farzand ko'rish va ko'p bolali oilalar, kambag'al oilada dunyoga kelish va yaxshi ta'lim olmaslik hamda uzoq muddat davomida past haq to'lanuvchi ishda ishlab kelishdir.** Garchi bu holat murakkab yechimni talab etsa-da, bu muammoni yenga turib, millioner darajasiga yetgan insonlar ham yo'q emas. **Kambag'allik tuzog'idan chiqib keta olish uchun har kimdan talab qilinayotgan narsa, bu – harakatdir.** Aholini ular qanday qatlamda ekanligiga qaramay, ular uchun maqbul yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, kelajagi uchun faqat va faqat ularning o'zlari javobgar ekanliklarini ko'rsatgan holda ularga maqsad va vazifalari yo'lida eng qisqa va mos yo'lni belgilab berish bu tuzoqni tark etishning eng sinalgan usullaridan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jahon miqyosida yetakchi o'rinlarda turuvchi ko'plab millionerlar hayotiga nazar solsak, ularning orasida kambag'allik tuzog'iga tushib, undan chiqib keta olganlari ham ko'plab uchraydi. Eng avvalo, insonlarda o'z hayotlarini yaxshiroq qilish va rivojlantirish istagi bo'lishi

kerak. Bunga intilish ularning o'zlarida paydo bo'lmas ekan, amalga oshirilayotgan islohotlarning foydasi deyarli yo'q.

Kambag'allik tushunchasini bir jumla bilan ifodalash to'g'ri emas. Ba'zilar kambag'allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni-saqlash) uchun imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar – tanlov erkinligining yetarlicha bo'lmasligi yoki kuniga qanchadir kam miqdorga kun kechirishni, uchinchi tomon esa – insonning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta'lim va sog'liqni-saqlash sohasidagi to'siq va muammolarning doimiy doirasini tushunishadi. Muxtasar qilib aytsak, **kambag'allik – muayyan maqbul turmush darajasini ta'min eta olmaslikdir. Yana boshqa fikrlarga ko'ra, kambag'allik– ma'lum bir shaxs yoki oilaning zaruriy ehtiyojlari darajasining ularni qondirish imkoniyatlaridan oshib ketishidir.** Umumiy qaraganda, kambag'allikni baholash bir nechta ko'nikma va usullarni talab qiladi.

Kambag'allikni o'lchashda 4 usul qo'llaniladi: oziqlanishga asoslangan, xalqaro, nisbiy va sub'yektiv kambag'allik chegarasi. O'zbekistonda kambag'allikni o'lchashda faqat dastlabki ikkita usul qo'llaniladi. Oziqlanishga asoslangan usulning natijalari kambag'allik darajasini 11,4% ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi yondashuv natijalariga asoslanib esa kuniga 5,5 dollar chegarani oliganda kamta'minlanganlik darajasi 36,6% va 3,6 dollar deb olganda - 9,6%ni tashkil etadi. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, kambag'allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilmoqda.³

Kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha qadamlar kam ta'minlangan oilalalar vaziyatidan kelib chiqqan holda, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida ishtirok etishdagi to'siqlar va rivojlanishning eng maqbul yo'llari, shuningdek, makroiqtisodiy va mikro siyosatga asoslangan bo'lishi ularning unumdor bo'lishini belgilaydi.

Kambag'allikni aniqlashga ko'mak beruvchi omil sifatida daromadlarning shakllanishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. O'z navbatida, daromadni shakllanishiga asos bo'luvchi sabablar va omillarni rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Bu esa, kambag'allikni bartaraf etishda asosiy rol o'ynaydi.

Kambag'allikka qarshi kurashishda dunyo mamlakatlari tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqishda Xitoy tajribasidan foydalanish ijobiy samara bera oladi.

Chunki, Xitoy bugungi kunda kambag'allikni tugatish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi.

Kambag'allikka qarshi kurashishda yordam bera oladigan jihatlarning yana biri, bu – hududlarda turli xil bo'sh ish o'rinlarini yaratishdir. Bu bilan jamiyat bilan birga davlatning ham rivojiga hissa qo'shiladi. Ish o'rinlarining kamligi yoki umuman bo'lmasligi aholining qashshoqlashib borishiga olib keladi. Bu muammoga yechim sifatida davlat tomonidan kambag'allikni qisqartirish maqsadida ajratiladigan mablag'lar miqdorini ko'paytirilishini, o'z biznesini boshlashda tadbirkorlarga turli imtiyoz va yengilliklar taqdim etilishni taklif qila olamiz .

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashishning eng to'g'ri yo'li va eng katta e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihat bu – fuqarolarning iqtisodiy tafakkurini o'zgartirishdir. Har kim iqtisodiy erkinlikka ega bo'lmog'i lozim. Jahon banki bergan ma'lumotlarga ko'ra, yerga egalik huquqining jamiyat orasida ko'payishi "qashshoqlikni kamaytirish kaliti" ekanligi va asosiy masalalar mulkni saqlash hamda yer masalalarining arzonligini ta'minlash deb ta'kidlandi. Bu borada kambag'allar uchun yer-mulk munosabatida imtiyozlar berilishi bu muammoga yana bir yechim bo'la olishi mumkin.

Bu yo'lda ularga bera oladigan eng katta ko'magimiz – ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirish va ularga iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasida har qanday turdagi, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy yordamni ko'rsatishimizdir. Yana ahamiyatga olinishi kerak bo'lgan jihat, yoshlar kelajagiga e'tiborsiz bo'lmaslikdir. Jamiyatimizdagi qashshoq oila frazandlarining yoshlik chog'idan boshlab pul topishga urinishlari ularni ta'lim sohasidan yiroqlashtiradi. Vaqtinchalik kam haq to'lanadigan ishlarga ishonib, yoshlar ta'limni unutiladi va yangi kambag'allik tuzog'ini yaratib qo'yishgani o'zlari sezishmaydi. Buni oldini olish uchun yoshlar ta'limi va tarbiyasini yaxshilash darkordir. Yoshlar - bu jamiyat kelajagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://naveconomy.uz/asosiy/yangiliklar/112-kambagallikni-qisqartirish-dunyo-hamjamiyati-muhokamasida.html>
(9.02.2021)
2. https://www.bbc.com/uzbek/mobile/lotin/2013/02/130228_latin_cy_asia_poverty_main
(9.02.2021)
3. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-kambagallik-darajasi-kambagallikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak>
(9.02.2021)
4. <https://sof.uz/post/kambagallikka-qarshi-qanday-kurashiladi>
(9.02.2021)